

Investitsiya loyihalarining bajarilish holati ko'rib chiqildi



Investitsiya loyihalarining bajarilish holati ko'rib chiqildi

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-iyun kuni Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Bu yil poytaxtimizda qariyb 4 milliard dollar investitsiya hisobiga 500 dan ziyod loyiha rejalashtirilgan. Bugungi kunga kelib, shundan 1 milliard 500 million dollar o'zlashtirilgan. 120 million dollarlik 71 ta loyiha ishga tushirilib, 5 mingdan ortiq ish o'rni yaratilgan. Umumiy miqdori 2 milliard 300 million dollarlik yana 450 ta loyiha bo'yicha ish olib borilmoqda.

Davlatimiz rahbari birinchi yarim yillikdagi ko'rsatkichlar yetarli emasligini ta'kidlab, kechikayotgan loyihalarning muammosini hal qilish, investitsiyalar jalb etishni ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Taqdimotda "Yangihayot" industrial texnoparkida olib borilayotgan ishlar ham ko'rib chiqildi.

Bu haqda O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 4-fevraldag'i qarorida belgilangan edi. Ushbu texnopark uchun 210 hektar maydon ajratilgan. Bosh reja ishlab chiqilib, bugungi kunda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish boshlangan.

Prezidentimiz bu ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan muhim loyiha ekanini ta'kidladi.

- Hech qaysi davlatda tadbirkorga yengillik yaratmasdan turib, natijaga erishib bo'lmaydi. Bu texnopark tadbirkorlar uchun qulay maydon bo'lishi kerak. Import o'rnini bosadigan, ko'proq odamlarni ish bilan ta'minlaydigan loyihalarga e'tibor qaratish kerak, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Birinchi bosqichda texnoparkning 110 hektar maydoni auksionda sotilgan. Ularda oshxonalar, qandolatchilik va to'qimachilik mahsulotlari, santonika tovarlari, polietilen va metall buyumlar ishlab chiqarish loyihalari joylashtirilgan. Umuman, texnoparkda tashkil etiladigan korxonalarda 20 ming ish o'rni yaratilishi mo'ljallangan.

Toshkentda xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha ham imkoniyatlar katta. O'tgan besh oyda bu sohada 5 ming 500 ta loyiha doirasida 183 mingta ish o'rni yaratilgan.

Davlatimiz rahbari aholining talabi va imkoniyatlari o'sib borayotganini, shundan kelib chiqib, xizmatlarni keng ko'lamda rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. Yoshlarni bu soha bo'yicha o'qitib, xizmatlar sifatini va bandlikni oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.





Manba